

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI**  
**JIZZAX VILOYAT PEDAGOGLARNI YANGI METODIKALARGA**  
**O‘RGATISH MILLIY MARKAZI**

**“ANIQ VA TABIIY FANLAR METODIKASI” KAFEDRASI**

**“PEDAGOGIK TA’LIM, INNOVATSION G‘OYALAR VA**  
**TEXNOLOGIYALARNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARINI**  
**YARATISH VA UNI AMALIYOTGA JORIY ETISH”**

**Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi**

**(2023-yil, 15-iyun)**

**MATERIALLARI**

**“CREATING THE SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASE OF**  
**PEDAGOGICAL EDUCATION, INNOVATIVE IDEAS AND**  
**TECHNOLOGIES AND THEIR IMPLEMENTATION INTO PRACTICE”**

**International scientific and practical online conference**

**(June 15, 2023 y)**

**MATERIALS**

**«СОЗДАНИЕ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКОЙ БАЗЫ**  
**ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ, ИННОВАЦИОННЫХ ИДЕЙ И**  
**ТЕХНОЛОГИЙ И ИХ ВНЕДРЕНИЕ В ПРАКТИКУ»**

**Международная научно-практическая онлайн-конференция**

**(июня 15, 2023 г)**

**МАТЕРИАЛЫ**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI**

**JIZZAX VILOYAT PEDAGOGLARNI YANGI METODIKALARGA  
O‘RGATISH MILLIY MARKAZI**

**“ANIQ VA TABIIY FANLAR METODIKASI” KAFEDRASI**

**“PEDAGOGIK TA’LIM, INNOVATSION G‘OYALAR VA  
TEXNOLOGIYALARNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARINI YARATISH VA  
UNI AMALIYOTGA JORIY ETISH”**

**Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi**

**(2023-yil, 15-iyun)**

**MATERIALLARI**

**“CREATING THE SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASE OF  
PEDAGOGICAL EDUCATION, INNOVATIVE IDEAS AND  
TECHNOLOGIES AND THEIR IMPLEMENTATION INTO PRACTICE”**

**International scientific and practical online conference**

**(June 15, 2023 y)**

**MATERIALS**

**«СОЗДАНИЕ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКОЙ БАЗЫ  
ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ, ИННОВАЦИОННЫХ ИДЕЙ И  
ТЕХНОЛОГИЙ И ИХ ВНЕДРЕНИЕ В ПРАКТИКУ»**

**Международная научно-практическая онлайн-конференция**

**(июня 15, 2023 г)**

**МАТЕРИАЛЫ**

**JIZZAX – 2023**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati tomonidan professional va oliy ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar, mavjud muammolar hamda navbatdagi ustuvor vazifalar to‘g‘risida o‘tkazilgan majlisning 2023-yil 27-apreldagi 39-son bayoni ijrosini o‘z vaqtida va samarali bajarish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 2-maydagi 118-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasida 2023-yilda Xalqaro va Respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik anjumanlar rejasiga asosan, Jizzax viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazida 2023-yil 15-iyun kuni “Pedagogik ta’lim, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarning ilmiy-nazariy asoslarini yaratish va uni amaliyotga joriy etish” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazildi.

Mazkur konferensiyaning tashkil etishdan maqsadimiz tadqiqotchilarning, soha mutaxassislarining, ta’lim sohasida ishlayotgan pedagoglarning ilm-fanni rivojlantirish borasidagi islohotlarini muhokama qilish, dolzarb masalalarni hal qilishning samarali usullarini ishlab chiqishga taklif etishdir. Biz uchun muloqot, tajriba almashish va hamkorlik muhim.

The purpose of organizing this conference is to discuss the reforms in this field of science among researchers, specialists in the field, teachers working in the field of education in the development of science, to invite them to develop effective ways to address pressing issues. Communication, exchange of experience and cooperation in this area are important for us

Наша цель, организации данной конференции - обсудить реформы исследователей, специалистов в данной области, учителей, работающих в сфере образования, в развитии науки, предложить им разработать эффективные способы решения актуальных проблем. Для нас важно общение, обмен опытом и сотрудничество

<b>Tahrir hay’ati:</b>	
A.Sh.Xolmurodov	Jizzax viloyati PYMO‘MM direktori, p.f.d., (DSc)
Sh.D.Abdurashidov	Jizzax viloyati PYMO‘MM direktor o‘rinbosari
J.A.Mardonqulov	“Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasini mudiri, p.f.f.d., (PhD)
A.Meliboyev	“Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari” kafedrasini mudiri, p.f.n., dotsent
Sh.Haydarov	“Tillarni o‘qitish va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi” kafedrasini dotsenti p.f.n.
M.Tilakova	“Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari” kafedrasini mudiri, p.f.f.d., (PhD)
P.Xolmatov	“Amaliy fanlar va maktabdan tashqari ta’lim texnologiyalari” kafedrasini mudiri p.f.n., dotsent
D.K.Norbekov	“Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasini katta o‘qituvchisi
M.M.Xolboyeva	“Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasini katta o‘qituvchisi
T.Sh.Avazov	“Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasini katta o‘qituvchisi
O.U.Ergashev	“Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasini katta o‘qituvchisi
Sh.A.Egamqulov	“Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasini katta o‘qituvchisi
M.M.Jabborov	“Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasini katta o‘qituvchisi
B.N.Qodirov	“Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasini katta o‘qituvchisi
F.M.Alimov	“Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasini katta o‘qituvchisi

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning xaqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas’uldirlar.

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami Jizzax viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi Ilmiy-metodik kengashining 2023-yil 19-iyundagi navbatdan tashqari yig‘ilish qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

## SO‘Z BOSHI

**“Pedagogik ta’lim, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarning ilmiy nazariy asoslarini yaratish va uni amaliyotga joriy etish” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani Assalomu alaykum, hurmatli mehmonlar, konferensiya ishtirokchilari!**

Barchamizga yaxshi ma’lumki, har bir davlatning barqaror taraqqiyoti hamda rivojlanishi inson omiliga, xususan, yosh avlodning ilmiy, ijodiy va ma’naviy salohiyatiga bog‘liq. Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralayotgani dunyo e’tiborini jalb etmoqda.

Buning yaqqol dalili sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-noyabr kuni Prezidentlik lavozimiga kirishish va qasamyod qabul qilishiga bag‘ishlangan tantanali marosimda, Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisida so‘zlagan nutqida ta’lim sohasiga alohida to‘xtalib o‘tdi hamda kelgusida amalga oshiriladigan vazifalarni belgilab berdi. Jumladan, kelgusida qabul qilinadigan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 7 yo‘nalishdan iborat bo‘lib, to‘rtinchi yo‘nalish, ya’ni, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirishning eng muhim omili hisoblangan sifatli ta’lim-tarbiya masalasida quyidagilarni ta’kidlab o‘tdilar.

Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirishning eng muhim omili hisoblangan sifatli ta’lim-tarbiya masalasi bundan buyon ham doimiy e’tiborimiz markazida bo‘ladi.

Yurtimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish uchun bizga zamonaviy ilm va yana bir bor ilm, tarbiya va yana bir bor tarbiya kerak. Bugungi va ertangi kunimizni, yoshlarimiz taqdirini hal qiladigan yuksak malakali muallim va murabbiylar, professor-o‘qituvchilar, haqiqiy ziyolilar kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4963-son qarorining xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishdagi roli beqiyosdir. Ushbu qaror asosida A.Avloniy nomidagi ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan tayyorlanib, ishga tushirilgan “Uzluksiz kasbiy rivojlantirish” elektron platformasi xalq ta’limi xodimlarining uzluksiz malaka oshirib borishlarida alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyamizda respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan sohadagi yetakchi olimlar, professor-o‘qituvchilar, shuningdek, bir qator xorijiy davlatlardan yetuk olimlar, fan doktorlari o‘zlarining ilmiy maqolalari bilan ishtirok etishmoqda. Biz barcha ishtirokchilarga, jumladan, Germaniyadan professor Kuchukov Xristo, Hindistondan falsafa fanlari doktorlari Prakash Babu, Kasimova Adiba Begaliyevna, Dxananjay Rao, doktor Djatotu Naresh, Qirg‘izistondan professor Duysheev Jenishbek Amatisakovich, Rossiya Federatsiyasidan professor Ushakova Oksana Semenovna, professor Yashina Valentina Ivanovna, dotsent Shabayeva Guzel Fagimovna, Pilipenko Yelena Aleksandrovna, professor A.M. Gareev, dotsent A.A.Budanova, **Kalinin Viktor Andreevich** va pedagogika fanlari doktori, akademik Rixsiboy Xaydarovich Djurayev, pedagogika fanlari doktori, professor Safarova Roxatoy Gaybullayevna hamda respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan olimlar, professor-o‘qituvchilarga konferensiyadagi ishtiroklari uchun oldindan minnatdorchilik bildiramiz.

Mazkur konferensiyani tashkil etishdan maqsadimiz tadqiqotchilarning, soha mutaxassislarining, ta’lim sohasida ishlayotgan pedagoglarning ilm-fanni rivojlantirish borasidagi islohotlarini muhokama qilish, dolzarb masalalarni hal qilishning samarali usullarini ishlab chiqishga taklif etishdir. Bu jarayonda biz uchun muloqot, tajriba almashish va hamkorlik muhimdir.

### **Aziz do‘stlar!**

Yangi O‘zbekistonni qurishda mamlakatimiz Prezidenti tomonidan ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirishga qaratilgan ishlari har bir pedagog xodimni ruhlantirdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Zero, “Yangi O‘zbekiston - maktab ostonasidan boshlanadi” shiori buning yaqqol tasdig‘idir.

Ishonchim komilki, bugungi “Pedagogik ta’lim, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarning ilmiy nazariy asoslarini yaratish va uni amaliyotga joriy etish” mavzusidagi xalqaro konferensiyada ishtirokchilar tomonidan bildiriladigan fikr va mulohazalar, takliflar kelgusida ta’lim sohasining rivojlanishiga, takomillashishiga xizmat qiladi.

**So‘zinning yakunida, konferensiyaning barcha ishtirokchilariga muvaffaqiyat tilayman. E’tiboringiz uchun minnatdorchilik bildiraman!**

*Jizzax viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi direktori  
Xolmurodov A‘zam Shaxriyovich*

**19. Achilov Nurbek Norboy o'g'li (2020). The use and importance of the three-dimensional features of the auto cad program in drawing projects in public schools.** European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, **8 (3) Part II, 189-192.**

20. Kukiev, B., O'g'li, N. N. & Shaydulloyevich, B. Q. (2019). Technology for creating images in autocad. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 7 (12), 49-54.

**21. Achilov Nurbek Norboy o'g'li (2020). Pedagogical and psychological fundamentals of formation of space imagination and creative ability in students.** European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, **8 (4), Part II, 38-40.**

22. Achilov N.N., Ko'kiyev B.B., Bekqulov Q. Sh. Yaqqol tasvirlarni bajarishda autocad dasturidan foydalanib loyihalash. Муғаллим ҳам ўзлуксиз билимлендириў илимийметодикалык журнали №2 2020 ISSN 2181-7138.

## **RIVOJLANISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNI O'RGANISH VA TASVIRIY FAOLIYAT JARAYONIDA NUTQINI RIVOJLANTIRISH.**

*Sobirov Sarvar Tursunmurotovich*

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Tasviriy san'at va dizayn"*

*kafedrası v.b. dotsenti [ssobirov337@gmail.com](mailto:ssobirov337@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Maqolada rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni erta aniqlab ularga tashxis qo'yish, va nuqsonni erta bartaraf etish, bolalarni tasviriy faoliyat jarayonida nutqini rivojlantirishning umumiy va maxsus didaktik tamoyillarini, shakli, mazmuni, metodlari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Reabilitatsiya, kompleks, nuqson, rivojlanish, ijtimoiy, diagnostik, psixik, jismoniy, intellektual, tashxis, skrinni, defferensial, defektolog, nutq, tasviriy faoliyat.

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarga samarali ta'lim, tarbiya berish, ijtimoiy moslashuvini yaratish uchun uning rivojlanish imkoniyat va xususiyatlarini to'g'ri baholay olishga bog'liqdir. Bu vazifani rivojlanish nuqsonlarini kompleks psixologo-pedagogik diagnostika qilish orqali amalga oshirish mumkin. Psixologopedagogik diagnostika rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning kamchiliklarini aniqlash, bolaning psixik-jismoniy xususiyatlarini e'tiborga olgan holda unga individual psixologo-pedagogik yondashuvni ta'minlaydi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maxsus maktabgacha va maktab ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatadi. Ushbu bolalarni psixik va jismoniy rivojlanishini ta'minlovchi ta'lim sharoitlar yaratilgan. Bunday sharoitlardan avvalo har bir bolaning xususiyatlari e'tiborga olgan holda yakka yondashuvni talab etadi. Ushbu yondashuv maxsus dastur, metod, keraqli maxsus texnik vositalarni, maxsus tayyorgarlikka ega pedagog, psixolog, defektolog va boshqalar bilan birgalikda kerakli tibbiy - profilaktik hamda davolov tadbirlarini, maxsus ijtimoiy yordamni, maxsus ta'lim muassasalarini texnik va ilmiy-metodik jihatdan ta'minlashni o'z ichiga oladi. Hozirgi kunda turli xil maxsus ta'lim muassasalari mavjud. Bolalar puxta saralash natijasida qabul qilinishi mo'ljalangan va O'zbekiston respublikasi xalq ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan maxsus ta'lim dasturlarini amalga oshiradigan maxsus ta'lim muassasalar bilan bir qatorda turli reabilitatsiya markazlari, rivojlantirish markazlari, aralash guruhlar ochilgan. Shuningdek, umuta'lim maktabgacha ta'lim muassasalarida, umumta'lim maktablarda psixik va jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni uchratish mumkin.

Ushbu nuqsonlarning ko'rinishi turlicha bo'lishi mumkin. Son jihatdan yirik bo'lgan guruhni harakatlanish, sensor yoki intellektual sohalarida nuqsonlari aniq ifodalanmagan: eshitishda, ko'rishida, fazoviy-idrok tassavurlarida, harakat-tayanch apparatida, fonematik idrokida nuqsoni bo'lgan, hissiy-irodaviy buzilishli, nutqiy rivojlanishida kamchiliklarga ega, xulq buzilishlariga ega, psixik rivojlanishi orqada qolgan, somatik sust bolalar tashkil etadi. Yaqqol ifodalangan psixik yoki jismoniy rivojlanishdagi nuqsonlar maktabgacha yoshda aniqlansa, yengil nuqsonlar uzoq vaqt mobaynida e'tiborsiz qoladi.

Rivojlanishdagi nuqsonlarni tashxis qilish uchun bosqichni o'z ichiga oladi:



Birinchi bosqich - skrining nomini olgan. Ushbu bosqichda bola rivojlanishidagi orqada qolish, psixik-jismoniy kamchiliklari aniqlanadi, lekin ularning xarakteri va chuqurligi belgilash murakkab bo'ladi.

Ikkinchi bosqich - rivojlanishdagi nuqsonlarni differensial tashxis qilish. Ushbu bosqichning maqsadi rivojlanish nuqsonini turini (xil, toifasini) aniqlash. Uning natijalariga ko'ra bolaning imkoniyat va xususiyatlarini hisobga olgan xolda, ularning ta'lim olishlari uchun ta'lim muassasasini turi va dasturi, optimal pedagogik yo'llanmasi aniqlanadi. Psixologo-tibbiy-pedagogik komissiyaning faoliyati differensial diagnostikada yetakchi rolni egallaydi.

Uchinchi bosqich - fenomenologik. Uning maqsadi - bolaning individual xususiyatlari, ya'ni tafakkur faoliyatining xarakteristikasi, hissiy-iroda doirasi, ishchanlik qobiliyati, shaxsi o'rganilib u bilan ishlash bo'yicha korreksion rivojlantiruvchi individual shart-sharoitni tashkillashtirishdir.<sup>53</sup>

Ma'lumki, nutq-odamlarning til vositasi bilan aloqa bog'lashlaridir. Odam nutq orqali munosabatga kirishib, o'zining bilimlarini faqat yakka tajriba hisobiga emas, balki juda ko'p avlod-ajdodlar tomonidan to'plangan ijtimoiy tarixiy tajriba hisobidan ham boyitadi. Nutq barcha aks ettirish jarayonlari kabi har bir odamning yakka hayoti davomida o'zlashtiriladi. Bola dastlabki nutqni egallayotgan davrda uning nutqi tovushlarga bo'lgan reaksiyasi juda umumlashgan xarakterga ega bo'ladi. Bolani nutqi rivojlanayotganda, u atrofdagi odamlar muloqoti ta'siri ostida rivojlanib boradi. Kar va zaif eshituvchi bolalar nutqi, lug'at boyligi oshishida va rivojlanishida bir qator qiyinchiliklar yuzaga keladi. ENB bolalar eshitish analizatori turqun pasayganligi tufayli ularning nutqida ko'pgina kamchiliklar kuzatiladi, lug'atining kambag'al bo'lishi, gramatik komponent rivojlanmagan, gap ichida so'zlarni tashlab ketishi, so'zlardagi tovushlarni tushirib talaffuz etish, so'zlarni o'zaro boqlay olmaslik, kelishik, so'z yasovchilarni, so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarni ishlata olmaslik, o'xshash jarangli va jarangsiz undoshlarni bir-biri bilan adashtirish shular jumlasidandir. ENB bolalar maktabida ta'lim tizimining bosh maqsadlaridan birini yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf etgan xolda nutqini muloqot quroli sifatida shakllantirishdir. Nutqini shakllantirish va nutqini logik idrok eta olishni faqatgina nutq o'stirish darslarida emas, balki har bir darslarda, to'garaklarda lug'at boyligi oshirib boriladi. Birinchi sinfda o'quvchilarga qoyiladigan talab, nutqiy materialni og'zaki daktilda talaffuz qilish orqali lug'at boyligi oshiriladi. Muloqot malakasini xosil qilish asta-sekin nutq materialini atrofdagi odamlar bilan o'zaro bir-birlarini tushunish uchun zarur. Har bir chorak uchun mavzudan kelib chiqqan tholda nutqiy material beriladi. S.A.Zikovning ta'kidlashicha, kar bolalarni tilga o'rgatish ishining maqsadga muvofiq sistemasini kommunikativ funktsiyasini amalga oshirish kerakdir. Bunda har bir yil uchun tuzilgan reja, dastur o'quvchilarning nutq egallashlari amal qilgan holda o'zlashtiriladi. Har bir so'z va so'z birikmasi o'zida kommunikativlik ma'suliyatini olgan bo'ladi.

Surdopedagog o'quv jarayoniga asosiy ta'sir etuvchi shaxsdir, u o'qitishning har bir bosqichida dastur talabiga asoslangan holda o'quv jarayonlarini tashkil etadi. Ularga rahbarlik qiladi. Sog'lom bolalar kabi kar va zaif eshituvchi bolalar nutqini egallashni, o'z atrofdagi odamlarga taqlid qilishdan boshlaydilar. Kar bolalarni taqlidi nutq organlarini xarakatini ko'rish orqali egallashlariga asoslanadi. Zaif eshituvchi bolalarni nutqga o'rgatishda ularning atrofdagilardan eshitgan so'zlaridan foydalanadilar. Shuning uchun surdopedagog o'zining nutqiga talabchan bo'lishi kerak. Lekin o'quvchilarning imkoniyatiga qarab so'zlarni qisqartirish, birlashtirish mumkin emas. Bu talablar nutqiy malakani oshirishning hamma turlari uchun qo'llaniladi. Tasviriy faoliyat darslarida kar va zaif eshituvchi o'quvchilar qanday faoliyatga kirishsalar, qanday predmetni chizishlari va qaysi o'quv qurollaridan foydalanish bosqichlari albatta surdopedagog tomonidan nutqiy boshqarilib boriladi. Har qanday faoliyat ENB bolalarni nutqini aktivlashtirish, shakllantirishga, lug'atini boyitishga qaratilgan. O'qituvchi har bir dars uchun lug'at tanlashi kerak. Lug'at tuzishdan oldin o'qituvchi sinfdagi o'quvchilarni eshitish darajasini xisobga

---

<sup>53</sup> Xasanova M. M, Halimova O. M. RIVOJLANISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNI O'RGANISHGA KOMPLEKS YONDOSHUV. Международный научный журнал №5 (100), часть 2 «Научный импульс» Декабрь, 2022. b1784-1788.

olishi kerak. Lugʻat boyligini oshirish quyidagicha amalga oshiriladi. Nutqni rivojlantirish surdopedagog tomonidan bolalarda predmetning katta-kichikligi, shakli tushunchalari shakllanadi. Tasviriy faoliyatda esa bolalar vazifani amaliy bajarib olingan tushunchalar kengaytiriladi, aniqlashtiriladi va mustahkamlanadi. Har qanday faoliyat bolalar nutqini aktivlashtirishga, shakllantirishga, lugʻatni boyitishga va nutqini mustahkamlashga qaratilgan.

Oʻqituvchi har bir dars uchun toʻgʻri lugʻat tanlashi kerak. Lugʻatga 4 qismdan iborat soʻz va iboralarni kiritish mumkin:

1) Soʻz va ibora, bajarilayotgan ish faoliyatiga boʻliq ishlatiladigan materialning nomi (loy, qogʻoz, boyoq, yelim, ...) bajarilayotgan faoliyat (lepka, rasm chizish, byoyash, yopishtirish, shtrixlash, ...) ish qurollarining nomi (qalam, boyoq qalam, qaychi, bolgʻa).

2) Soʻz-predmetning nomi va iborasi, bolalar tasvirlayotgan predmet (shar, archa, qoʻqirchoq, ...)

3) Soʻz va ibora, bolalarning idrok qilishlari uchun yoʻnaltirilgan harakat (kuzatib chiq, barmoqing bilan aylantirib kuzatib chiq, paypaslab koʻrib chiq)

4) Soʻz va ibora, idrok qilish orqali mustahkamlash (rangning nomi, geometrik shakli, hajmini belgilab olish). Birinchi gruppadagi soʻzlarni tasviriy faoliyatda sekin-asta oʻzlashtirib boriladi. Ikkinchi gruppada soʻz (soʻz-predmetning nomi) – tartib boyicha bolalar topish. Tasviriy sanʼat faoliyatida soʻzlar predmet bilan yangicha boʻqlanishi. Uchinchi va toʻrtinchi guruhdagi soʻzlarga alohida ahamiyat beriladi. Bolalarning diqqatini predmetga va uning xususiyatiga qaratiladi. Soʻngra esa bolalar idrok qilgan obrazi mustahkamlanadi. Masalan: Tasviriy faoliyatda olma rasmini tasavvur orqali chizish jarayonida oʻqituvchi “Olma shar shakliga oʻxshaydi. Yuqorisida chuqurchasi bor, chuqurchasida dumchasi bor”. Aytilayotgan soʻzlar qoyiladigan choʻntakchaga quyiladi. Mashgʻulot uchun olingan lugʻat aniq koʻrsatilishi lozim. Tasviriy faoliyatda foydalanilayotgan nutq materialining koʻp qismi bolalarga tanish boʻlishi lozim. Oʻqitishning 1-2 yilida tartibli har bir Mashgʻulotga ikkitadan ortiq yangi soʻz berish mumkin emas. Oʻqitishning keyingi yillarida 3-4 tadan ortiq yangi soʻz berish mumkin emas. Rivojlanishda orqada qolayotgan bolalar tasviriy faoliyatida oʻquvchilarning lugʻati ortadi, nutqi aktivlashtiriladi. Rivojlanishda orqada qolayotgan bolalar shaxs sifatida shakllanishlarida nutqning rivojlanish ahamiyati katta. Shunday ekan yuqorida aytib oʻtganimizdek, har bir faoliyatda bolalar nutqini rivojlantiriladi. Har bir tasviriy faoliyat darsida, chizishdan oldin mavzudan kelib chiqqan holda suxbat, savol javob oʻtkaziladi. Oʻqituvchi sinfda bolalar soni kamligi tufayli, har bita bola bilan ogʻzaki muloqotga kirishish, imkoniyatiga ega. Oʻquvchilar rasm chizishda analiz-sintez qilishga, rasmlarni ajratishga oʻrgatiladi. Oʻquvchilar yuqorida, pastda, oldinda, orqada, uzun qisqa kabi tushunchalarga ega boʻladilar.

Mavzudan kelib chiqqan holda har bir darsda yangi lugʻat va tushunchalarga ega boʻladilar. Chizish jarayonida ham, oʻqituvchi bolalarni savolga tutadi, sen nimani rasmini chizyapsan? Rangi qanaqa? Nimaga oʻxshaydi?... shu kabi savolar bilan murojat etib, bolalarni ogʻzaki nutqini tekshiradi va rivojlantiradi. Ayrim Rivojlanishda orqada qolayotgan bolalar soʻzlari va gaplari bir biriga bogʻlanmagan holda, soʻz yasovchi, soʻz oʻzgartiruvchi, kelishik qoʻshimchalarini tashlab gapirishadi, shunda oʻqituvchi bolalar nutqini toʻgʻrilab gapirishga, toʻliq gapirishga oʻrgatadi.

Rivojlanishda nuqsoni bor bolalarning nutqini rivojlantirishda tasviriy faoliyatning oʻrni katta. Bolalar tasvirlashga qiziqishlari yuqori boʻlganligi sababli biror buyum yoki narsani tasvirlash jarayonida nomini qayta qayta takrorlash, tasvirlanish va nomlanishi murakkab buyum va narsalardan boshlamaslik kerak. Baʼzi bir xolatlarda nutqida muammosi bor bolalar bilan shugʻullanishning oʻzi katta samara bermaydi.

Bolani erta tashxis qilib oʻrganishning muhimligi shundaki, u orqali bolani korreksion taʼlimga vaqtida yoʻnaltirib, ikkilamchi nuqsonlarni paydo boʻlishini oldini olish mumkin. Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlariga korreksion va diagnostik yordam. Bola imkoniyatlariga baho berish hamda psixik rivojlanishini aniqlash orqali korreksion pedagogik ishning vazifalarini xal etish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. D.A.Nurkeldiyeva, M.U.Hamidova “Rivojlanishida nuqsoni boʻlgan bolalar diagnostikasi”. Toshkent 2016 –yil.



2. “Rivojlanishida nuqsoni bo’lgan bolalar bilan korreksion logopedik ish” o’quv – uslubiy majmua.
3. M.Y. Ayupova. “ Logopediya” 10.08.2007-yil 4. Raxmanova V.S. “ Korreksion pedagogika va logopediya “ 2007-yil
5. M.Y. Ayupova. “Logopediya” O’zbekiston faylasuflar Milliy jamiyati. 2007-yil.
6. Xasanova M. M, Halimova O. M. RIVOJLANISHIDA NUQSONI BO’LGAN BOLALARNI O’RGANISHGA KOMPLEKS YONDOSHUV. Международный научный журнал №5 (100), часть 2 «Научный импульс» Декабрь, 2022. b1784-1788.
7. Sobirov S.T. BOLALAR IJODIY QOBILYATINI RIVOJLANTIRISHDA GRAFIK RASSOMLAR HAYOTI VA IJODIY FAOLIYATINI ORGANISHNING MUHIMLIGI. ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯДА ИННОВАЦИЈАЛАР 2-маҳсус сон. ISSN 2181-9513. 2020.

## **PEDAGOGIK TA’LIM KLASTERI XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH**

*Toshtemirova Saodat Abdurashidovna  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti*

**Annotatsiya.** Toshkent viloyatida joriy etilgan mintaqaviy ta’lim klasteri ta’lim subyektlari o’rtasidagi uzviylikka, ijtimoiy buyurtma ta’minlanishiga ta’sir ko’rsatuvchi, muammolarni tezkor va qulay optimal variantlarini qabul qilishning eng qulay vositasi sifatida ta’lim turlarining texnologik hamkorligining yagona mobil axborot maydoni – pedagogik ta’lim klasterining ochiq ta’lim kontenti (xizmatlar platformasi)ni yaratish zarurati borligini ko’rsatdi, aynan shu masalaning muammolari, maqsad va vazifalari hamda ahamiyati mazkur maqolada asoslab ko’rsatilgan.

**Kalit so’zlar:** ta’lim klasteri, uzviylik, tizimlilik, izchillik, tezkor aloqa, mobillik, ijtimoiy buyurtma, innovatsiya, integratsiya, pedagogik kadr, mexanizm, kasbga yo’naltirish, tashxislash, metodologiya, elektron pedagogika, aralash ta’lim, bandlik, iqtisodiy taraqqiyot.

**Kirish.** Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ta’lim sifatini oshirish maqsadida “ta’lim mazmuni va sifatini oshirish, raqobatbardosh, yuqori bilim va ko’nikmalarga ega oliy ma’lumotli pedagoglar tayyorlashda samarador bo’lgan pedagogik ta’lim innovatsion klasterlarini joriy qilish” [1] mexanizmlari yanada takomillashtirilmoqda. Maktabgacha, umumiy o’rta, professional va oliy ta’lim tizimlarida integratsion sifatni ta’minlash ko’p jihatdan shunga qaratilgan o’quv klasterlarini joriy qilishni taqozo etadi. Bu jarayonda ta’lim oluvchilarni uzluksiz, izchil va tizimli shaklda hayotga tayyorlash ishlari tashkil etiladi. Bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta’limning turli yo’nalishlarida klaster subyektlarini bitta tizimga o’zaro hamkorligini tashkil qilish orqali iste’molchilarga xizmat ko’rsatish tashkil etilgan. O’zbekistonda 2018-2019 yilardan Pedagogik ta’lim klasteri Chirchiq dvlta pedagogika universitetida Toshkent viloyati misolida joriy etilgan. Bugunga qadar Pedagogik ta’lim klasterining ilmiy nazariy asoslari ishlab chiqildi, subyektlar maqsadi va ularning vazifalari belgilandi, faoliyat mexanizmlarini amalga oshirish maqsadida maktab-laboratoriyalar tashkil qilindi. Biroq bu Pedagogik ta’lim klasteri muayyan bir hududdagi ma’lum bir subyektlar bilangina cheklanmoqda, buning asosiy sababi ta’lim muassasalaridagi, jarayon subyektlaridagi vaqt taqsimoti, ish yuki hamda muvofiqlashmagan yagona markazning tashkil qilinmaganligida deb hisoblash mumkin. Bu muammoning yechimi esa, o’z navbatida pedagogik ta’lim klasteri xizmatlarini raqamlashtirish, platformasini ishlab chiqish natijasida amalga oshiriladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Mamlakatimizda pedagogik ta’lim klasterining ilmiy-nazariy asoslari, undagi uzluksizlik, uzviylik va izchillik va boshqa tamoyillari, uning innovatsion modeli hamda uni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari G’I.Muxamedov, Sh.Q.Mardonov, U.N.Xodjamqulov, J.E.Usarov, Sh.I.Botirova, S.A.Toshtemirova, N.M.Koshanova, G.N.Sharipova va boshqalarning ishlarida muayyan darajada yoritilgan. Bugungi kunda mazkur yo’nalishda bir qator mahalliy tadqiqotchilar ilmiy izlanishlarni olib bormoqda.

**Natijalar.** Pedagogik ta’lim klasteri xizmatlarini raqamlashtirishning asosiy maqsadi ta’lim tizimiga yangi joriy etilgan ta’lim klasteri tizimida **turli darajadagi subyektlar** (maktabgacha

<i>Masharipova Nasiba Ro‘zmatovna</i> .....	
Ta’lim tizimida sifat va samaradorlikka erishishda innovatsion texnologiyalar, xalqaro baholash tajribalar, fanlararo tadqiqot usullari: muammo va yechimlar	
<i>Avazov Zahriddin</i> .....	445
Kasb-hunar maktablarida kasbga yo'naltirishning pedagogik asoslari	
<i>Joldasov Ixtiyor Suyindikovich</i> .....	448
Birlashgan arab amirliklarining markaziy osiyo davlatlari bilan aloqalari (1991-2023)	
<i>Kamoliddinov Farrux Burxoniddin o‘g‘li</i> .....	450
Oliy ta’lim muassasalarida grafik ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan talablar	
<i>Ozodboyev Ismoil Odilboyevich</i> .....	453
The importance of integrating skills in teaching	
<i>Qodirov Bekmurod</i> .....	455
Oliy ta’lim muassasalari talabalarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishning o‘ziga xos jihatlari	
<i>Raxmanova Muqaddas Qaxramonovna</i> .....	459
Mustaqil ta’lim jarayonida talabalarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish	
<i>Raxmanova Muqaddas Qaxramonovna</i> .....	462
Morfologik shakllar nomutanosiblikning umumnazariy masalalari	
<i>Uralov Azamat Begnarovich</i> .....	465
Таълим жараёнида талабаларни хорижий тиллардан касбий мобиллигини ривожлантиришнинг дидактик таъминотини такомиллаштириш модели	
<i>Г.Суюнова</i> .....	468
Цвет и свет: Ключевые инструменты для создания настроения и атмосферы в акварельной живописи	
<i>Л.Ш.Халилов</i> .....	472
Inklyuziv ta’limni o‘qitishda o‘qituvchining kasbiy faoliyati va fazilatlari tahlili	
<i>M.A.Tilakova</i> .....	474
Двойная профессиональная компетенция как двойное содержание теоретические основы профессионального образования развитие системы	
<i>Мирзарахмонова Шахноза Мирзаахмадовна</i> .....	477
Давлатлараро ташки туризмни ривожланиш шароитида туризм хавфсизлигининг аҳамияти	
<i>Музаффаржон Мансуров</i> .....	483
Инновационные подходы в изобразительном искусстве: «steam-модели»	
<i>Р.Ш.Халилов, С.Зайниддинова, А.Раззакова, З.Файзиева</i> .....	485
Уструшонанинг археологик ўрганилиш тарихи	
<i>Холбоев Зиёдулла Тоирович</i> .....	489
Касбий ривожланиш тенденцияларининг назарий асослари	
<i>Қораев Самариддин, Хусанова Муқаддас</i> .....	495
Talabalarni olimpiada va tanlovlarda ishtrok etishda mustaqil ta’limning o‘rni.	
<i>Bekqulov Qudrat. Shaydulloyevich</i> .....	497
Rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni o‘rganish va tasviriy faoliyat jarayonida nutqini rivojlantirish.	
<i>Sobirov Sarvar Tursunmurotovich</i> .....	500
Pedagogik ta’lim klasteri xizmatlarini raqamlashtirish	
<i>Toshtemirova Saodat Abdurashidovna</i> .....	503
Ta’lim sifatini oshirishda ta’lim klasteri: imkoniyat, yuqori samaradorlik va yuksak natija	
<i>Koshanova Nilufar Maxsudovna</i> .....	506
Chizma geometriyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida multimediali texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi	
<i>Ataxanova Svetlana Orinbayevna</i> .....	510
Бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларини рангтасвир орқали касбий компетенцияни ривожлантириш	
<i>Нуртаев Уринбай, Мансурова Мафтуна</i> .....	514

**“PEDAGOGIK TA’LIM, INNOVATSION G‘OYALAR VA TEXNOLOGIYALARNING  
ILMIY-NAZARIY ASOSLARINI YARATISH VA UNI AMALIYOTGA JORIY ETISH”**

**Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya (2023-yil, 15-iyun) materiallari.** Jizzax 2023. 558 bet

**Manzil**

Jizzax shaxar, 100130, I. Karimov shoh ko‘chasi 6-uy,  
Tel: (37222) 60823 Faks: (37222) 61015  
e-mail: [jizzax\\_markaz@xtv.uz](mailto:jizzax_markaz@xtv.uz),  
[jiz.malakaoshirish@exat.uz](mailto:jiz.malakaoshirish@exat.uz)

QR kod

